

**BRONXIAL ASTMA RIVOJLANISH XAVFI YUQORI BO'LGAN  
GURUHLARNI TAHLIL QILISH (BRONXOOBSTRUKTIV SINDROM  
BILAN OG'RIGAN BOLALAR MISOLIDA)**

***Tursunkulova Durdona***

*Samarqand Davlat Tibbiyat Universiteti*

*Pediatriya fakulteti 4-kurs*

*Ilmiy rahbar: Umarova.S.S*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy ish bronxoobstruktiv sindrom bilan og'rigan bolalar misolida bronxial astma rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan guruhlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot davomida genetik, ekologik va klinik omillar tahlil qilinib, astma rivojlanishiga olib keluvchi asosiy xavf omillari aniqlandi. Ish yakunida profilaktika choralari va erta tashxis qo'yishning ahamiyati ko'rsatib berildi.

**Kalit so'zlar:** bronxial astma, bronxoobstruktiv sindrom, bolalar, xavf omillari, irsiyat, atrof-muhit, profilaktika, erta tashxis

**Annotation:** This study focuses on identifying high-risk groups for the development of bronchial asthma among children with broncho-obstructive syndrome. Genetic, environmental, and clinical factors contributing to asthma onset were analyzed. The research concludes with recommendations for preventive measures and emphasizes the importance of early diagnosis and medical supervision.

**Keywords:** bronchial asthma, broncho-obstructive syndrome, children, risk factors, heredity, environment, prevention, early diagnosis.

**Аннотация:** Данное исследование посвящено выявлению групп высокого риска развития бронхиальной астмы среди детей с бронхообструктивным синдромом. В ходе работы проанализированы генетические, экологические и клинические факторы, способствующие возникновению астмы. В заключение приведены рекомендации по профилактике и подчеркивается важность ранней диагностики заболевания.

**Ключевые слова:** бронхиальная астма, бронхообструктивный синдром, дети, факторы риска, наследственность, окружающая среда, профилактика, ранняя диагностика

Bolalar orasida bronxial astmaning (BA) tarqalish sur'atining yiliga 20% gacha oshib borishini hisobga olib, bugungi kunda bronxoobstruktiv sindrom (BOS) rivojlanish xavfi omillarini aniqlash va ularning bolalarda BA rivojlanishiga ta'sirini o'rjanish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu boisdan, BOS kechishi va natijasini oldindan baholash hamda bu bilimlarni amaliyotga joriy qilish orqali bemorlarni tekshirish va davolash-reabilitatsiya tadbirlarini optimallashtirish zarur

bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda BA ayniqsa hayotini dastlabki yillaridagi bolalarda tez-tez uchrab turadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nafas olishda hushtakli xirillashlar BA rivojlanishining prognoz belgisidir va bu butun dunyoda dolzarb muammo sanaladi. Tadqiqotchilar BA prognozi bilan bog‘liq masalalarning dolzargligini ta’kidlaydi. Bu boradagi tadqiqotlar OOB (o‘tkir obstruktiv bronxit) bilan kechadigan bolalarni reabilitatsiyalash va qaytalanishlarning oldini olishga qaratilgan davolash usullarini tanlashda diferensial yondashuvga xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, BOSning birinchi epizodini boshdan kechirgan bolalar orasidan xavf guruhini ajratish orqali ularning keyinchalik BA rivojlanishiga olib keluvchi qaytalanishlarining oldi olinadi.

BA ni erta yoshda prognozlash hanuz murakkablik tug‘diradi. Ayrim tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, astmali bolalarning uchdan ikki qismi erta yoshda BOS simptomlariga ega bo‘lмаган. Bu esa BAning kech tashxislanishiga olib keladi. Yu.L. Mizernitskiyning ma’lumotlariga ko‘ra, O‘RVI bilan bog‘liq BOS sababli kasalxonaga yotqizilgan bolalarning 50% dan ortig‘i 4–8 yildan so‘ng astma bilan og‘риган, ammo bu ular kichik yoshda bo‘lganida aniqlanmagan.

Xavf guruhidagi bunday bolalarni aniqlash BA kechishini nazorat qilish va kasallik darajasini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, bolalik davrida astma rivojlanish xavfi yuqori bo‘lgan bolalarni erta aniqlash va simptomlarini boshqarish maqsadga muvofiq.

BA rivojlanish xavfi yuqori bo‘lgan guruhnini shakllantirish maqsadida OOB fonida BOSni boshdan kechirgan bolalar misolida asosiy, zamin yaratuvchi va ehtimoliy xavf omillarining ta’siri o‘рганилди. Ular ustidan bir yil davomida kuzatuv olib borildi. Barcha bemorlar stasionarda davolanib, keyinchalik uyga mahalli pediatr nazoratiga chiqarilgan. Asosiy xavf omillari sifatida quyidagilar ajratib olindi: erta yoshdagi bolalar, erkak jinsi, atopik dermatit, xalqona usullar bilan o‘zbilarmonlik bilan davolanish, yilning qish va bahor fasllari, allergik anamnezning og‘irligi, timomegaliya, paratrofiya, limfa-gipo-plastik diatez (LGD), oziq-ovqat allergiyasi, oilada passiv chekish, erta sun’iy oziqlantirish.

Xavf omillariga quyidagilar kiritildi: tez-tez O‘RVI bilan kasallanish, BOSning tez-tez takrorlanishi, raxit, homiladorlik davridagi asoratlar (gestoz), noqulay yashash va ekologik sharoitlar, muddatidan oldin tug‘ilish, ota-onaning zararli odatlari.

Ehtimoliy xavf omillari esa quyidagilar deb baholandi: qishloq joylarda yashash, yoz va kuz fasllari, gipoksik-iskemik ensefalopatiya (GIE), nafas yo‘llariga begona jismlarning tushishi, mushak gipotoniyasi, ko‘krak qafasi va umurtqa tuzilishidagi deformatsiyalar (masalan, raxit sababli).

Yuqoridagi barcha xavf omillari BA rivojlanish ehtimolini oshiruvchi “yuqori xavfli guruh”ga birlashtirildi. Umuman olganda 35 nafar OOB bilan og‘риган bola kuzatuvga olindi. Ular ikki guruhga bo‘lindi:

- 1-guruh: 18 nafar bemor – yuqori xavf omillariga ega.
- 2-guruh: 17 nafar bemor – ehtimoliy xavf omillariga ega.

Kuzatuv har chorakda bir yil davomida olib borildi. Natijalarga ko‘ra, birinchi guruhda BOS epizodlari ikkinchi guruhga nisbatan uch baravar ko‘p (59,2% ga 14,3%) qayd etildi. 3 holatda esa ularda bronxial astma tashxisi qo‘yilgan 1-guruhdagi bemorlar orasida quyidagi salbiy omillar ustunlik qildi: BOS va O‘RVI epizodlarining tez-tez takrorlanishi, atopik dermatit, allergik holatlar, erkak jinsi, o‘zbilarmonlik bilan davolanish, kech tibbiy yordamga murojaat qilish.

**Xulosa** qilib aytganda, BOS epizodini boshdan kechirgan, asosiy va zami yaratuvchi xavf omillariga ega OOB bilan og‘rigan bemorlar BA rivojlanishi uchun yuqori xavfli guruh sifatida e’tirof etildi. Ular orasida kasallikning tez-tez takrorlanishi va og‘irlashuvi kuzatildi. Bir qancha holatlarda BOS fonida OOB bronxial astmaga o‘tishi aniqlangan. Demak, BA rivojlanishida prognoz nuqtai nazaridan muhim bo‘lgan xavf omillari – tez-tez O‘RVI bilan kasallanish, og‘ir kechish, kech murojaat, allergik kasalliklar, erkak jinsi va erta yosh – asosiy rol o‘ynaydi. Shu sababli oilalarda, shuningdek, birlamchi tibbiyot muassasalarida bu kabi xavf omillariga ega bolalar bilan oldini olish ishlari olib borilishi muhim sanaladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. To‘raeva, X. S. (2023). Bolalarda bronxo-obstruktiv sindromning klinik va immunologik xususiyatlari. O‘zbek ishi hisobotlari jurnali, 3(1), 22-27.
2. To‘raeva, N. O. (2023). Bolalarda bronxo-obstruktiv sindromning rivojlanishida B VITAMINI taqchilligining ahamiyati va uning sitokin holati bilan bog‘liqligi. National Scientific Research International Journal natijalari, 2(2), 280-290.
3. Sulaymonovna, U. S., Muyassarovna, K. M., Farrux, I., & Sherali, T. (2024). MAIN CAUSES AND FACTORS OF DEVELOPMENT OF BRONCHO-OBSTRUCTIVE SYNDROME IN CHILDREN. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, 3(2), 285-292
4. Umarova, S. S., Nabiyeva, F. S., & Diamatova, D. I. (2023). HOZIRGI BOSHQACHA BOLALARDA O‘tkir REVMATIK ISITMANI KLINIK XUSUSIYATLARI. Ochiq kirish ombori, 10(10), 63-69.
5. Хусаинова, Ш. К., Мухамадиева, Л. А., & Умарова, С. С. БОЛАЛАРДА ҚАЙТАЛАНУВЧИ ЗАМОНАВИЙ ТУШУНЧАЛАР. БРОНХИТ ХАҚИДА
6. Umarova, S. C. va Normaxmatov, B. B. (2024). Bolalarda bronxo-obstruktiv sindrom: tarqalish, differentzial diagnostikadagi qiyinchiliklar, prognoz. Travma va nogironlik bo'yicha tadqiqotlar jurnali, 3 (2), 254-261.
7. Ruzmetova, S. U., Umarova, S. S., Husainova, S. K. (2021). BOLALARDA O'tkir obstruktiv bronxitning hozirgi davri.